



Volume 3, Issue 3(16), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-15

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS/ АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ
1	<i>Umarov Rahim, Yusupov Kirmon</i>	<i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>	5-9
2	<i>Umarov Rahim, Isoqov Shohruh</i>	<i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>	10-14
3	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>	15-19
4	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>	20-23
5	<i>Абдувасиев Садрор Баҳром ўғли</i>	<i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>	24-27
6	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom ugli</i>	<i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i>	28-31
7	<i>Igamqulova Zilola, Umirov Javlonbek</i>	<i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>	32-34
8	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>	35-38
9	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>	39-41
10	<i>Yo'ldoshev Mirjalol, Allamuradov Husan, Rustamov Yoqubjon</i>	<i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>	42-46
11	<i>Orishev Jamshid, Majidova Hurriyat</i>	<i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>	47-51
12	<i>Orishev Jamshid, O'rozov Bobur</i>	<i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>	52-55
13	<i>Rahimov Azizbek, Yaxshiboyevich</i>	<i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>	56-59
14	<i>Rahimov Azizbek, Parmanova Jumagul</i>	<i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>	60-64
15	<i>Rahimov Azizbek, Normatov Shuxrat</i>	<i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>	65-69
16	<i>Ortiqova Ozoda, Rahmatva Shahlo</i>	<i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>	70-73
17	<i>Alqorov Qodir Xolmatovich</i>	<i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>	74-78

		<i>aloqadorligi</i>	
18	<i>Alqorov Qodir, Yusupov Kermom</i>	<i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>	79-82
19	<i>Тугалов Фарход, Мамадиёров Уралжон</i>	<i>Физика ўқитишида талабаларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришида муаммоли таълим технологияларининг ўрни</i>	83-86
20	<i>Тугалов Фарход, Беркинова Чехроза</i>	<i>Фундаментал фанларнинг аҳамияти</i>	87-91
21	<i>G`ofurova Aziza Xidirnazar qizi</i>	<i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o’qitish jarayonini takomillashtirish</i>	92-95
22	<i>Ortiqova Ozoda, Nazirova Nafisa</i>	<i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi</i>	96-100
23	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>	101-104
24	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>Kreativ yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i>	105-107
25	<i>Po’latov Ja’farbek Hasanboy o’g’li</i>	<i>O’quvchilarga mexanik ish mavzusini texnikalar bilan aloqadorlikda o’qitish texnologiyasi</i>	108-110
26	<i>Salomov Abdurasul, Ismoilov To’ychi</i>	<i>Bo'lajak texnologiya o'qituvchilari uslubiy tayyorgarligining nazariy asoslari</i>	111-115
27	<i>Ismoilov To’ychi Jabborovich</i>	<i>Zamonaviy ta'lim sifat va camaradorlikka erishish omili</i>	116-122
28	<i>Eshtuxtárova Orzigul, Mamatqulov Fatxulla</i>	<i>Fizika masalalar yechimining didaktik taxlili</i>	123-126
29	<i>Umirov Homid Musurmon o'g'li</i>	<i>Tabiiy fanlarni o’qitishda fanlar integratsiyalashuvi</i>	127-129
30	<i>Rajabov Nurmuhammed</i>	<i>Cheap the theory of creating solar panels</i>	130-132
31	<i>Rajabov Nurmuhammed</i>	<i>The effect of temperature on the cvc of a photoelectric converter</i>	133-139
32	<i>Qurbonov Anvar, Mixliev Jaloliddin</i>	<i>Kumulyativ protonlarning inklyuziv kesimlari va invariant tuzilish funksiyalari bo’yicha taqsimotlari</i>	140-144

KUMULYATIV PROTONLARNING INKLYUZIV KESIMLARI VA INVARIANT TUZILISH FUNKSIYALARI BO‘YICHA TAQSIMOTLARI

¹*Qurbonov Anvar Razzaqovich, ²Mixliev Jaloliddin*

¹*f.m.f.b.(PhD), dotsent, ²magistr 2-kurs,*

^{1,2}*Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax sh., O‘zbekiston*

e-mail: anvar.fizik@mail.ru

Калит сўзлар: *kumulyativ jarayon, to‘qnashuv, kumulyativlik soni, impuls, inklyuziv ko‘ndalang kesim, barionli tizimlar, pionlar*

Аннотация. *Yuqori energiyali zarralar va yadrolar to‘qnashuv jarayonida hosil bo‘lgan kumulyativ protonlarni o‘rganish yadro xususiyatlarini ochib berishda yuqori samara beradi. Ushbu ish juda keng qamrovli bo‘lib 3.25 A GeV/c li ¹⁶Op-to‘qnashuvlarida, 40 GeV/c li π^- C-to‘qnashuvlari, 4.2 va 9.9 GeV/c li pC-to‘qnashuvlarida, 4.2 A GeV/c li ⁴HeC- va CC-to‘qnashuvlarida, hamda 300 GeV/c li pNe-to‘qnashuvlarida kumulyativ protonlar hosil bo‘lishini ilk bor tizimli tadqiq qilish hamda kumulyativ jarayonlarni tavsiflashga bag‘ishlangan hodisalarning tahlil natijalari keltirilgan.*

Ключевые слова: *кумулятивный процесс, столкновение, кумулятивное число, импульс, инклюзивное сечение, барионные системы, пионы*

Аннотация. *Изучение кумулятивных протонов, образующихся при столкновении частиц высоких энергий с ядрами, весьма эффективно для выявления ядерных свойств. Эта работа очень обширна по столкновениям ¹⁶Op при 3,25 ГэВ/с, столкновениям pC при 40 ГэВ/с, столкновениям pC при 4,2 и 9,9 ГэВ/с, 4,2 А ГэВ/с первое систематическое исследование кумулятивного образования протонов в ⁴HeC - представлены и CC-столкновения с c, и pNe-столкновения с 300 ГэВ/с и анализ явлений, посвященный описанию кумулятивных процессов.*

Key words: *cumulative process, collision, cumulative number, momentum, inclusive cross section, baryon systems, pions*

Abstract. *The study of cumulative protons produced by the collision of high-energy particles with nuclei is very effective for revealing nuclear properties. This work is very extensive on ¹⁶Op collisions at 3.25 GeV/c, pC collisions at 40 GeV/c, pC collisions at 4.2 and 9.9 GeV/c, 4.2 A GeV/c first systematic study of cumulative proton production in ⁴HeC - both CC-collisions with c and pNe-collisions with 300 GeV/c and an analysis of the phenomena devoted to the description of cumulative processes are presented.*

40 GeV/c li π^- C- va 4.2 A GeV/c li CC-o‘zarota’sirlarida kumulyativ protonlar inklyuziv ko‘ndalang kesimlarining kumulyativlik soni β bo‘yicha taqsimotini solishtirish bu jarayonlarning har birida hosil bo‘lgan kumulyativ protonlar hosil bo‘lishi haqida muhim ma’lumotlar olishimiz mumkin. Misol tariqasida 40 GeV/c li π^- C- va 4.2 A GeV/c li CC-to‘qnashuvlarida kumulyativ

protonlar inklyuziv ko‘ndalang kesimlarining kumulyativ soni β bo‘yicha taqsimoti $\beta > 1.2$ sohalar uchun ko‘rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari 300 GeV/c li $p^{20}\text{Ne}$ -to‘qnashuvlar va 3.25 A GeV/c li ^{16}Op -to‘qnashuvlari uchun kumulyativ protonlar invariant strukturaviy funksiyasining kumulyativlik soni β bo‘yicha taqsimotlari keltirilgan. To‘g‘ri uzluksiz chiziqlar orqali tajribaviy taqsimotlarga quyidagi ifoda

$$f(\beta) = a \exp(-b\beta), \quad (1)$$

bilan yaqinlashish natijalari ko‘rsatilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, kumulyativ protonlarning na faqat invariant strukturaviy funksiyalarining β -ga bog‘liqligi hatto ular inklyuziv ko‘ndalang kesimlarining ham kumulyativlik soniga bog‘liqligi eksponensial qonuniyatga bo‘yso‘nar ekan.

Ushbu ishda 300 GeV/c li $p^{20}\text{Ne}$ - va 3.25 A GeV/c li ^{16}Op -to‘qnashuvlarida kumulyativ protonlar invariant ko‘ndalang kesimlarining kumulyativlik soni bo‘yicha taqsimotini 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri chiziqlar tajribaga (1) ifoda bilan yaqinlashish natijalarini 300 GeV/c li $p^{20}\text{Ne}$ - to‘qnashuvlarida kumulyativ protonlarning soni 4990 tani tashkil qiladi va 3.25 A GeV/c li ^{16}Op -to‘qnashuvlarida hosil bo‘ladigan kumulyativ protonlar soni 12367 tani tashkil qiladi[1-5].

Kumulyativ protonlarning kumulyativlik soni β bo‘yicha barcha taqsimotlarga (1) ifoda bilan yaqinlashish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qiyalik parametrlarning qiymatlari qaralangan barcha turdagi o‘zarota’sirlar va birlamchi energiyalar uchun statistik xatoliklar chegarasida bir-biriga teng va hamma ansambllar bo‘yicha uning o‘rtacha qiymati 8.1 ± 0.1 ni tashkil qiladi[4-5].

1-jadval

(2) ifoda bilan yaqinlashish bo‘yicha qiyalik parametrlari, to‘qnashuv turlari va voqealar soni

‘zarota’sir turi, $R_0(\text{GeV}/c)$	Voqealar soni	qiyalik parametri, b	$\chi^2/\text{e.d.s.}$
$\pi^-C, 40.0$	16657	8.18 ± 0.26	1.1
$pC, 4.2$	6901	8.09 ± 0.49	1.0
$pC, 9.9$	18325	8.10 ± 0.25	0.9
$^4\text{HeS}, 4.2 A$	12326	8.00 ± 0.28	1.2
$CC, 4.2 A$	20530	8.14 ± 0.20	0.4
$^{16}\text{Op}, 3.25 A$	12367	8.13 ± 0.21	0.4
$p^{20}\text{Ne}, 300$	4990	7.99 ± 0.18	0.8

Shunday qilib, aytish mumkinki, kumulyativ protonlar hosil bo’lish mexanizmi birlamchi zarracha turiga hamda energiyaga bog’liq emas.

Kumulyativ protonlarning kumulyativ ^{16}Op - va $p^{20}\text{Ne}$ -to’qnashuvlaridagi o’rtacha soni mos ravishda 1.11 ± 0.02 va 1.16 ± 0.3 larga tengdir, π^- -mezonlar, protonlar, α -zarrachalar va uglerod yadrolarining uglerod yadrolari bilan o’zaro ta’sirlarida bu kattalik 1.05 ± 0.01 ni tashkil qiladi. 4.2 A GeV/c impulsli CTA-o’zarota’sirlarini dastlabki tahlilida kumulyativ protonlarning kumulyativ hodisalardagi o’rtacha soni 1.79 ± 0.06 ga teng chiqdi. Shunday qilib, aytish mumkinki, kumulyativ protonlarning o’rtacha soni parchalanuvchi yadro massa soni o’sishi bilan sekin ortib boradi[5-9].

Kumulyativ protonlar o’rtacha ko’plamchiligining parchalanuvchi yadro massa soniga bog’liqligini o’rganish uchun unga quyidagi ifoda $\langle n_{\text{cum}} \rangle = a + A^\alpha$ bilan yaqinlashdik. Bu erda A – parchalanuvchi yadro massa soni, a – va α – yaqinlashish parametrlari. Yaqinlashish natijasida 99 foizli ehtimollikda parametrlarning qiymatlari quyidagilarga $a = -0.41 \pm 0.01$ va $\alpha = 0.15 \pm 0.01$ teng chiqdi. Tajriba natijalariga $\langle n_{\text{cum}} \rangle = a + Z^\alpha$ ifoda bilan (bu erda Z – yadro zaryadi) yaqinlashganda esa 99 foizdan ko’proq ehtimol bilan parametrlar qiymatlari $a = -0.32 \pm 0.01$ va $\alpha = 0.17 \pm 0.01$ larga teng chiqdi.

Shunisi qiziqki, har ikkala yaqinlashishda ham daraja ko’rsatkichlari statistik xatoliklar chegaralirida bir-biriga teng va 1/6 ga juda yaqindir. Bu qiymat esa hamma protonlar sonining massa soniga bog’lanish ko’rsatgichi (2/3)dan 4 marta kichikdir.

2-jadvalda kumulyativ hodisalar ulushining birlamchi zarracha turiga va massasiga bog’liqligi to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan. 2-jadvaldan shuni ko’rish mumkinki, berilgan parchalanuvchi yadro uchun kumulyativ hodisalar ulushi birlamchi zarracha ,ki yadro massa soniga (proton ,ki barionlar tizimi) bog’liq emas. Bu holat kumulyativ protonlar «sovuq» model bashorati orqali vujudga kelishiligini to’la-to’kis tasdiqlaydi. Ikkinchidan, bu kattalik birlamchi zarracha turiga (pion ,ki proton) bog’liq.

Birinchi holatdan foydalanib $p^{12}\text{C}$ -, $\alpha^{12}\text{C}$ - va $^{12}\text{C}^{12}\text{C}$ -to’qnashuvlari bo’yicha kumulyativ hodisalarning o’rtacha ulushini topishimiz mumkin. Bu kattalik $10.0 \pm 0.1\%$ ga teng. Kumulyativ protonli hodisalar ulushinig birlamchi barionlar tizimiga bog’liq bo’lmasligi birlamchi zarrachalarning fluktonlar bilan bir karrali to’qnashuvlari ustivor ekanligini ko’rsatadi. Fluktonlar soni esa berilgan parchalanuvchi yadro uchun «sovuq» model bashorati bo’yicha o’zgaras kattalikka ega. Flukton va zarrachalar to’qnashuvlarida zarrachaning turi, ya’ni kvarkli tarkibi muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan barionli tizimlar va pionlar to’qnashuvlarida hosil bo’lgan kumulyativ hodisalar ulushlari nisbati diqqatga

sazovordir, bu kattalik 0.66 ± 0.02 ga teng, bu esa statistik xatoliklar chegaralarida 2/3ga tengdir, ya’ni piondagi valent kvarklar soni (2)ning protondagi valent kvarklar soni(3)ga nisbatiga aynan tengdir. Demak kumulyativ protonlar hosil bo’lishi kvark-parton darajalarida amalga oshar ekan[6-8].

2-jadval

Kumulyativ protonli hodisalar ulushlarining birlamchi zarracha turiga bog’liqligi

O’zarota’sir turi, $R_0, \text{ GeV/c}$	Hodisalarnin g to’liq soni	Kumulyativ protonli hodisalar soni	Kumulyativ protonli hodisalar ulushlari, %
$\pi^{-12}\text{C}, 40.0$	16657	1097	6.6 ± 0.2
$p^{12}\text{C}, 4.2$	6901	699	10.1 ± 0.4
$p^{12}\text{C}, 9.9$	18325	1825	10.0 ± 0.2
${}^4\text{Ne}^{12}\text{C}, 4.2 A$	12326	1211	9.8 ± 0.3
${}^{12}\text{C}^{12}\text{C}, 4.2 A$	20530	2070	10.1 ± 0.2
${}^{16}\text{Op}, 3.25 A$	12367	1496	12.1 ± 0.4
$p^{20}\text{Ne}, 300$	4990	728	14.6 ± 0.6
CTa, 4.2	2440	1013	41.5 ± 1.5

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kumulyativ protonlar hosil bo’lish invariant inklyuziv ko’ndalang kesimlarining kumulyativlik soni β ga bog’liqligi universal xarakterga ega bo’lib birlamchi zarracha turiga, parchalanuvchi yadro massa soniga va birlamchi energiyaga bog’liq emas. Kumulyativ zarrachalar hosil bo’lishi bilan boshqa zarrachalar ko’plamchiligi orasidagi bog’lanishlarni tahlil shuni ko’rsatdiki, ular orasida bog’lanish mavjud bo’lib, u kumulyativ protonlar kumulyativlik darajasiga bog’liq emas ekan. Boshqacha qilib aytganda, bu ikkala jarayonlar mexanizmlari orasida hech qanday bog’lanish mavjud emas.

Adabiyotlar

1. Olimov K. et al. Formation of multinucleon systems and nuclei with mass numbers of 6 and 7 in ${}^{16}\text{O} p$ interactions at a momentum of 3.25 GeV/c per nucleon //Physics of Atomic Nuclei. – 2009. – T. 72. – C. 596-600.
2. Olimov K. et al. Production of mirror nuclei ${}^7\text{Li}$ and ${}^7\text{Be}$ in ${}^{16}\text{O} p$ interactions at a momentum of 3.25 GeV/c per nucleon //Physics of Atomic Nuclei. – 2011. – T. 74. – C. 268-271.
3. Olimov K. et al. Formation of six-nucleon systems and nuclei in ${}^{16}\text{O} p$ collisions at a momentum of 3.25 GeV/c per nucleon //Physics of Atomic Nuclei. – 2014. – T. 77. – C. 325-329.

4. Olimov K. K. et al. ABOUT CROSS-SECTIONS OF YIELD OF EXCITED 6 Li^* , 7 Li^* , 9 B^* AND 10 B^* NUCLEI AND THEIR CONTRIBUTIONS TO FORMATION OF MULTINUCLEON SYSTEMS INVOLVING 4 He NUCLEI IN 16 O p COLLISIONS AT $3.25\text{ A GeV}/c$ //International Journal of Modern Physics E. – 2013. – Т. 22. – №. 08. – С. 1350057.

5. Юлдашев Б. С. и др. Некоторые особенности образования зеркальных семинуклонных систем и ядер в ^{16}O -соударениях при $3.25\text{ A GeV}/c$ //Узбекский физический журнал. – 2017. – Т. 19. – №. 2. – С. 120-123.

6. Olimov K. et al. Contributions of excited 6 Li and 7 Li nuclei to the production of $4\text{ He}+2\text{ H}$ and $4\text{ He}+3\text{ H}$ systems in 16 O p collisions at a momentum of $3.25\text{ GeV}/c$ per nucleon //Physics of Atomic Nuclei. – 2013. – Т. 76. – С. 881-882.

7. Olimov K. et al. Breakup of an oxygen nucleus to light fragments of mass number in the range $A \leq 4$ in 16 O p interactions at a momentum of $3.25\text{ GeV}/c$ per nucleon //Physics of Atomic Nuclei. – 2012. – Т. 75. – С. 398-403.

8. Olimov K. K. et al. About Transverse Momentum Distributions of Negative Pions in $p^{12}\text{C}$ and $\pi^{-12}\text{C}$ Collisions at High Energies //Ukrainian Journal of Physics. – 2020. – Т. 65. – №. 2. – С. 97-97.

9. Olimov K. et al. Contributions of excited [^{sup. 6}] Li and [^{sup. 7}] Li Nuclei to the production of [^{sup. 4}] He+[^{sup. 2}] H and [^{sup. 4}] He+[^{sup. 3}] H systems in [^{sup. 16}] Op collisions at a momentum of $3.25\text{ GeV}/c$ per nucleon //Physics of Atomic Nuclei. – 2013. – Т. 76. – №. 7. – С. 881-883.